



YUNUS EMRO SHE'RLARIDA TASAVVUF ILMI DURDONALARI

Ahrorbek G'aniyev

Farg'ona davlat universiteti
axrorbekganiyev@gmail.com

Asilbek Muydinov

Farg'ona davlat universiteti
Aslzoda92@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7993022>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil
Ma'qullandi: 28-May 2023 yil
Nashr qilindi: 31-May 2023 yil

KEY WORDS

*tasavvuf, nafs, komillik, ilohiy
ishq*

ABSTRACT

*Maqolada Tasavvuf ilmi, uning maqsadi va bu
yo'nalishda ijod qilgan shoirlar haqida fikr yuritilgan.
Shuningdek, Yunus Emroning she'rlari orqali
tasavvufning asl mohiyatini tahlil qilishga qaratilgan*

Islom dini orqali insonning ruhiy kechinmalarini poklab, nafsni jilovlay olishi tasavvuf ilmini yuzaga chiqaradi. "Nafs" so'zi arabchada "o'zim, shaxs" so'zini anglatib, bizning fikrimizga ko'ra insonning "men" haqida qayg'urishini bildiradi. Tabiiyki, agar o'zimizni istak-xohishimizni jilovlasak, qalbimiz haqiqiy pokiza tuyg'ularni his qilishga va boshqalarga ulashishga tayyor bo'ladi. Ushbu ta'limot har bir insonning ham ruhiy, ham axloqiy jihatdan o'zini komillika intilishini anglatadi. Tasavvuf tushunchasi borasida turli davrlarda olimlar turlicha fikr bildirganlar. Ko'pchilik fikriga ko'ra, Ibn Xalidning "Muqaddima" asarida aytib o'tgan fikrlari, ushbu ta'limotni to'laligicha ifodalay olishi mumkinligi ko'rsatilgan. Ushbu ta'rifga ko'ra "suvf" — "jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, chunki darveshlar va zohidlar qadimdan faqatgina oddiy po'stin kiyishgan. Bu harakati orqali ular komillik kamtarlikda, muhabbat esa harakatlarda ekanligini namoyon etishgan. Tasavvuf ilmi to'laligicha insonning borliqdan voz kechib, yo'qlikning aslida borliq orqali to'laligini ko'rsatadi. Ushbu fikrga ilohiy ishqda olg'a qadam bosgan turk shoiri Yunus Emro haqida aytishimiz joiz deb bilamiz. Shoirning she'rlari orqali Islom dini mustahkam arkonlardan tashkil topish bilan birga, qalbning pokizaligi, parxezkorligi va butunlay o'zdan kechib unga—"Yagona muhabbat" ga qaytmog'i haqida aytiladi. Yunus Emro XIII asrda yashagan turk shoiri. Uning hayoti haqida ma'lumotlar juda kam bo'lsa-da, she'rlari butun turk diyorlarida juda mashhur, oradan o'tgan salkam yetti yuz yil mobaynida sharq xalqlarining eng suyukli shoirlaridan biriga aylandi. Ba'zi manbalardan va she'rlaridan uning 1240 yildan tug'ilgani, 80 yil umr ko'rgani, Eskishehir-Sariko'yda (hozirgi Yunus Emro) vafot etgani va shu yerda dafn etilgani ma'lum. Yunus Emro madrasa ta'limini olgan, arab va fors tillarini yaxshi bilgan, Qur'on va hadis ilmlarini chuqur o'rgangan, o'z davrining yetuk mutasavvuf olimi bo'lgan zot bo'lib, o'z falsafiy dunyoqarashi bilan o'sha davrning yirik, XIII asrda Xurosondan Anadoluga kelgan. U Hoji Bektosh Valiy va Taptuk

Bobo (Taptuk Emro) kabi ustozlardan ta'lim olgan. U o'z she'rlarida Alloh va Rasuliga (s.a.v) sevgi haqida kuyladi. «Sevaman, sevilaman» deb yozgan shoir insonlarni, yaratilqlarni sevish orqali Yaratgan sevgisiga erishish haqida yozdi. Toptiq Emro shoirning haqiqiy oshiq sifatida pishishida juda puxta ustozlik qiladi. Insonning tabiatida o'zni sevish tushunchasi juda mahkam joylashgan. Shu sababli inson ko'pincha qiyinchiliklarga duchor bo'ladi. Kibr, manmanlik, dabdabaga intilish yoki ilmning asli mening kuchimda, harakatimda deyishlilik ko'pincha yo'ldan noto'g'ri tomonlarga burilishiga sabab bo'ladi. Ushbu xislat shoirimizda ham yo'q emas, lekin ustozning mahorati va qalbida shogirdiga bo'lgan ishonchi doimo to'g'ri, haq yo'lga intilishiga sabab bo'ldi. Insonning mukammalikka intilishi o'zi noqislik bo'lib, qanday qilib jismida og'riqni his qilgan, xafa bo'lsa beixtiyor yig'laydigan inson ojizligini tan olmaydi. Ustoz shogirdini qattiq kamsitishlar orqali "men"ini sindiradi. Bu bilimlar agar Mavlo xohlamaganda edi, uning qalbiga, fitratiga yozilmagan bo'lar edi. Shuning uchun kamtar shoir quyidagi she'rda "Sulaymon bor, Sulaymondan ichkari" deya yuzni pastga egmoqda.

MANI MANDA DEMA...

Seviram man sani jondan ichari,
Yo'lim bordir bu arkondan ichari.
Shariat, tariqat yo'ldir ketguncha,
Haqiqat mevasi undan ichari.
Dinin tark etganning kufrdir ishi,
Oh, na kufrdir imondan ichari.
Mani manda dema: manda deganim
Bir man bordir manda Mandan ichari.
...Sulaymon qush tilin bilur, dedilar,
Sulaymon bor Sulaymondan ichari.
Tajallodan bir pay chatdi kamina,
Kamina maqsadi bundan ichari.
Saning ishqing mani mandan olibdi,
Ne shirin dard bu darmondan ichari.
Miskin Yunus ko'zi duch keldi sana,
Bog'ingda bir gul bor Sultondan ichari.
(Xurshid Davron tarjimasi)*

* Ichari — ichkari, yanada ichkariroqda, yanada pinhonroqda ma'nosida kelmoqda.

Ushbu she'ri orqali kamtar, miskin insonning qul sifatida har bir qilayotgan ishining boshi o'zida emasligi, qo'lidan sevishdan bo'lak hech narsa kelmasligi haqida aytib o'tadi. Meni menda dema, bordir men mendan ichkari. Misrada insonning asli ruh o'ziniki emasligi, u ham aslida sovg'a ekanligi va bu Buyukning bir qismidan parcha ekanligi haqida deb hisoblaymiz.

Sulaymon qush tilin bilur, dedilar,
Sulaymon bor Sulaymondan ichari.

Yunus Emro ushbu misralar orqali agar Alloh taolo Sulaymon alayhisallomga qushlar bilan so'zlashish, jinlar va shamollarni boshqarishni tabiatiga joylamagan bo'lganda edi, ular bu masalada qanday bo'lishligi chiroyli kamtarlik bilan aytib o'tilmoqda.

Saning ishqing mani mandan olibdi,
Ne shirin dard bu darmondan ichari

Ishqning kuchlilik o'zidan ketishlikka, yo'qotishlikka sabab bo'lyapti, lekin bu yoqimli

dardning kuchayishi undan-da yoqimli ekanligi ajib chiroyli misralarda aks etgan. Bu ishqning kuchi uning bir paytning o'zida o'ta darajada ojiz va o'ta darajada kuchli qilib ko'rsatadi. Chunki zohid butun vujudi bilan o'zining yagona Mavlosi ixtiyorida ekanligini va u hech qachon uni qiyinchiliklarda yolg'iz qoldirmasligini anglaydi. Bu ishq shunchalar yoqimlik, qaysi tomonga yuzini bursa oshiq, ma'shuqini ko'radi. Tabiiyki, har bir harakatini ma'shuqqa yoqish uchun qiladi. Uning ko'nglini olish va unga yoqmaydigan ishlardan qaytish singari. Yunus Emro hayoti va ijodi haqida mashhur turk olimlari Fuat Ko'pruli, Burhon Tuproq, Abdulboqiy Go'lpinarli, Sabohiddin Ayyubo'g'li, Mijgon Chumbur, Mehmet Bayroqdor, Ahmad Qabaqli va boshqalar asarlar yozishgan. Bu o'rinda o'zbek tasavvufshunos olimi Ibrohim Haqqul nomini ham alohida tilga olib o'tish kerak. Ibrohim Haqqul buyuk Xoja Ahmad Yassaviyga bag'ishlangan maqolasida shunday yozadi: "Yunus Emroning devoni umumiy ruhi va bosh pafosi bilan Yassaviy tajribalaridan aytarli farq qilmaydi. Qolaversa, Yassaviy Yunus Emroning ulug' salafi.

Haqdin manga nazar bo'ldi,

Haq eshigin ochar bo'ldim.

Kirdim haqning g'aznasina,

Durru gavhar sochar boldim... —

deydi Yunus Emro. Axir Yassaviy ham ayni shu ehtiyoj va maqsad bilan hikmatlar aytmaganmi? "Toliblarga durru gavhar sochtim mano", — degan Yassaviy turkiy she'riyatidagi Yunus Emroga o'xshash so'fiy shoirlarga:

Haq yo'liga kirib bo'lmas pok bo'lmasang,

Lomakonda Haqdin saboq oldim ma'no, —

degan saboq bo'larli fikrlarni bayon etgan..."

Yunus Emro qabrining Eski shaharda, Karamanda va Turkiyaning yana bir qator shahru qishloqlarida mavjudligi uni suyish va e'zoz etish qay darajaga ekanini namoyon etadi. Bu shahru qishloqlar ahlining har biri Yunus Emroning haqiqiy qabri bizning shaharda, bizning qishloqda joylashgan, deya faxrlanishadi. Bu Yunus Emroning haqiqiy qabri xalq ko'nglida, uni suygan insonlar qalbida ekanining yorqin dalilidir. Insonning qalbi qanchalik mehrga to'la bo'lsa, uni sevuvchi insonlar shuncha ko'p bo'ladi. Chunki unga aslida ular emas, uning qalbiga bu ishqni solgan kerak. "Menga san keraksan, san" — deydi shoir. Shu tufayli she'rlarini sevib o'qiydigan oddiy xalq, shoirning ular ayta olmagan qalblaridagi tuyg'uni aks ettirgani uchun ham uni olqishlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Haqqulov. She'riyat – ruhiy munosabat. Toshkent, 1989. 24-bet
2. Komilov N., Tasavvuf (1-kitob), T., 1999;
3. Juzjoniy A. Sh., Tasavvuf va inson, T., 2001;
4. Haqqulov I., Tasavvuf saboqlari, Buxoro, 2000.
5. O'g'iloy Olimjon Qizi, G. (2020). TASAVVUF TARIQATI YO'NALISHLARI VA NAQSHBANDIYA TARIQATINING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. Academic research in educational sciences, (2), 142-150.
6. Muydinov, A. (2022). ENLIGHTENMENT IN TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE XIX-EARLY XX CENTURIES. ENLIGHTENMENT BY JADID SCHOOL. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 14-20.